

Sarimoy–Jonkeldi elektr liniyasi

Mamlakat: **O'zbekiston**

Loyiha raqami: **52874**

Faoliyat sohasi: **Elektr energiyasini ommaviy uzatish va boshqarish**

Bildirishnoma turi: **Davlat**

Ekologik toifasi: **A**

Tasdiqlangan kuni: **2022-yil, 21-sentyabr**

Qaysi bosqichdaligi: **Konsepsiya muhokamadan o'tgan**

Loyihaning qisqacha mazmuni chop etilgan sana: **2022-yil 16-may**

Loyiha mazmuni

Bank Sarimoy (Xorazm viloyati) va Jonkeldi (Buxoro viloyati) qishloqlari o'rtasidagi 128 km masofaga 500 kV li havo elektr uzatish liniyasi va yangi 500 kV li ochiq taqsimlash qurilmasini 500 kV li Navoiy yuqori voltli elektr uzatish liniyasi bilan boglovchi 2 km havo elektr uzatish liniyasi qurilishini moliyalashtirish uchun 47.1 million AQSH dollari miqdorida kredit ajratish imkoniyatini ko'rib chiqmoqda. Kredit mablag'lari, shuningdek, Sarimay podstantsiyasini 500 kV gacha kengaytirish va bunga tegishli maslahat xizmatlarini moliyalashtirish uchun ham yo'naltiriladi. Mazkur loyiha "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatiga (O'MET) tomonidan amalga oshiriladi.

Loyiha maqsadi

Bu loyihaning amalga oshirilishi elektr uzatish tarmog'ining ishonchliligi, samaradorligi va barqarorligini, shuningdek, elektr ta'minoti sifati va xavfsizligini sezilarli darajada oshiradi. Loyiha Buxoro viloyatida barpo etilayotgan qayta tiklanuvchi energiya asosidagi elektr stansiyalarida ishlab chiqariluvchi elektr energiyasini milliy elektr tarmogiga o'tkazishni ham osonlashtiradi.

O'tish davri ta'siri

ETI 62

Loyiha o'tish davri ta'sirining yashil va samarali boshqarish kabi sifatlariga sezilarli hissa qoshishi kutilmoqda.

Ushbu loyiha Buxoro viloyatidagi qayta tiklanuvchi energiya asosidagi elektr stansiyalarini milliy elektr tarmogiga ulashni qo'llab-quvvatlash orqali qayta tiklanuvchi energiyani shu tarmoqqa integratsiyalashuviga yordam beradi. Bundan tashqari, loyiha, ayniqsa, talab eng yuqori bo'lgan davrda tizimdagi yo'qotishlar va elektr ta'minotidagi uzilishlarni kamaytirish hisobiga hududning elektr energiyasi ta'minoti barqarorligini oshiradi. Mazkur loyiha mamlakatning qayta tiklanuvchi energiya manbalarini Buxoro va boshqa shimoliy hududlardan elektr energiyasi iste'molchilariga ishonchli va samarali yetkazib berishni ta'minlashi kerak bo'lgan zarur tarmoqni modernizatsiya qilish ishlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu loyiha doirasida YTTBning siyosiy muloqoti va texnik ko'magi, qayta tiklanuvchi energiya salohiyatini oshirishni hisobga olgan holda, elektr energiyasini taqsimlash bo'yicha mamlakatdagi joriy amaliyotni takomillashtirish orqali qayta tiklanuvchi energiyani milliy energetika tizimiga integratsiyalashuviga yordam berishi kutilmoqda.

Mijoz haqida

“O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati (OMET)

OMET – O'zbekistondagi yuqori voltli elektr energiyasini uzatish va taqsimlash tarmogi uchun mas'ul bo'lgan davlat energetika kompaniyasidir.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'lar

53 000 000,00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati

53 000 000,00 AQSH dollari

Ekologik-ijtimoiy xulosa

Sarimoy-Jonkeldi elektr uzatish liniyasi

A toifasiga kiritildi (ESP 2019). Yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyasining qurilishi ehtimoliy muhim ekologik va ijtimoiy ta'sirlar bilan bog'liq bolishi mumkin va u YTTBning Ekologik va ijtimoiy siyosati (“ESP”), milliy va Yevropa Ittifoqi qonunchilik hujjatlariga muvofiq toliq Loyihaning atrof va ijtimoiy muhitga bo'lgan ta'sirini baholash (“ESIA”) otkazishni talab qiladi.

Shuningdek, bu loyihaning atrof muhitga ta'siri milliy darajada baholanishi va shu asosda tegishli ruxsatnomalar olinishi ham talab qilinadi.

Bu loyihaning Ekologik va ijtimoiy ekspertizasini (“ESDD”) otkazish va qo'shimcha ESIA hisoboti paketini tayyorlash uchun alohida mustaqil maslahatchi yollangan. ESIA hisoboti 2022-yilning 16-mart kuni e'lon qilingan.

Mazkur loyiha (i) Sarimoy (Xorazm viloyati) va Jonkeldi (Buxoro viloyati) qishloqlari o'rtasidagi 128 km masofaga 500 kV li havo elektr uzatish liniyasi va (ii) yangi 500 kV li ochiq taqsimlash qurilmasini 500 kV li Navoiy yuqori voltli elektr uzatish liniyasi bilan bog'lovchi 2 km havo elektr uzatish liniyasi qurilishini o'z ichiga oladi. Bu loyihaning amalga oshirilishi elektr uzatish tarmog'ining ishonchiligi, samaradorligi va barqarorligini, shuningdek, elektr ta'minoti sifati va xavfsizligini sezilarli darajada oshiradi. Loyiha mamlakat elektr uzatish tarmog'i uchun mas'ul bo'lgan davlat

energetika kompaniyasi – “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati (OMET) tomonidan amalga oshiriladi.

Loyihaning ESIA baholashi atrof muhit va ijtimoiy masalalar hamda Bankning loyiha talablarini (“PR”) inobatga olgan holda otkazildi. Mustaqil otkazilgan Ekologik va ijtimoiy ekspertizada (“ESDD”) tasdiqlanishicha, mazkur loyiha tuzilmasi Bankning loyiha talablari, milliy va Yevropa Ittifoqi qonunchilik hujjatlari talablariga mos keladi. Shuningdek ESIAning tarkibiy qismi sifatida, turli oqibatlarni kamaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (“ESAP”) hamda Atrof-muhit, ijtimoiy boshqaruv va monitoring rejasi (“ESMMP”) ishlab chiqilgan.

Ekologik va ijtimoiy ekspertizada (“ESDD”) tasdiqlanishicha, ushbu loyihada Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasini (“ESAP”) amalga oshirish natijasida hududning biologik xilma-xilligiga (shu jumladan qushlar faunasiga) sezilarli zarar yetkazilmaydi. Shu bilan birga, u ishchi kuchi oqimi va yerdan foydalanishga ta'siri nuqtai nazaridan PR 2 va PR 5 ga muvofiq kelishi tasdiqlandi. Loyihaning muhofaza qilinadigan zonalar yoki noyob o'simlik va hayvonlar mavjud bo'lgan muhim hududlarga ta'siri yo'q va uning amalga oshirilishi aholining bir joydan boshqa joyga ko'chishiga sabab bolmaydi. Loyihaga iqlim xavf-xatarlari jiddiy ta'sir qilmaydi va u Parij talablariga javob beradi.

Loyihaning yo'nalishini tanlash, uning yo'lida xususiy yer uchastkalariga biror zarar yetkazishning oldini olishga alohida e'tibor qaratildi. ESDD, shuningdek, tegishli muhofaza va yumshatish choralari baholash va ishlab chiqish uchun 2021-yilning kuzi/2022-yil bahoridagi migratsiya mavsumida qushlar va korshapalaklarning keng qamrovli tadqiqotlarini ham o'z ichiga oladi. Ular ESMMP va ESAP'ga kiritilgan.

Mazkur ESDD asosida loyihaga oid ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha quyidagi hujjatlar ishlab chiqildi: Notexnik xulosa (“NTS”), Manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasi (“SEP”) va Yerni tasarruf qilish va aholini ko'chirish mexanizmi (“LARF”). O'z korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash nuqtai nazaridan, Bank loyiha va ESAP ijrosini taminlash, shuningdek korporativ Ekologik, ijtimoiy va mamuriy (“ESG”) boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish, buning natijasida esa, kelgusida barqaror rivojlanish haqidagi ma'lumotlarning oshkor qilinishini taminlash maqsadida OMET bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

Oshkor qilinuvchi to'liq ESIA hisobotlari to'plamini **bu yerdan** yuklab olish mumkin.

Sarimay podstansiyasini 500 kV gacha kengaytirish

Loyiha 2019-yilgi Atrof-muhit va ijtimoiy siyosatiga (ESP) asosan “B” toifasiga kiritilgan. “O‘zbekiston Milliy Elektr tarmog‘i” AJ (bundan buyon “NEGU” yoki “Mijoz” deb ataladi) Bankning mavjud mijozidir va ilgari moliyalashtirilgan loyihalardan tejab qolingan mablag‘larni yangi komponent – Sarimay podstansiyasini 500 kV gacha kengaytirishni (bundan buyon “Yangi Komponent” deb ataladi) moliyalashtirishga yo'naltirish bo'yicha murojaat qilgan.

Yangi Komponent doirasida mavjud Sarimay podstansiyasi hududida ochiq 500 kVli kommutatsiya qurilmasini barpo etish orqali yangi 500 kV ulanish nuqtasi tashkil etiladi. Sarimay podstansiyasi Bank tomonidan moliyalashtirilgan ikki loyiha – Sarimay–Jankeldi va Sarimay–Muruntau uzatish liniyalari uchun ulanish punkti vazifasini bajaradi.

Mazkur loyiha doirasida podstansiya komponentiga nisbatan mustaqil maslahatchi tomonidan atrof-

muhit va ijtimoiy tekshiruv (ESDD) o'tkazilgan. ESDD doirasida hujjatlarni ko'rib chiqish, NEGUning tegishli bo'limlari bilan uchrashuvlar hamda joyiga chiqib o'rganish ishlari amalga oshirildi. Sarimay podstansiyasini kengaytirish bo'yicha milliy Atrof-muhitga ta'sirni baholash (EIA) o'tkazilib, 2024-yil aprel oyida ijobiy ekologik xulosa olingan.

ESDD natijalariga ko'ra, podstansiya qurilishi natijasida jismoniy yoki iqtisodiy ko'chirish zarurati yuzaga kelmaydi. Yashash manbaini yo'qotish bo'yicha muammolar kutilmayapti, ammo chorvadorlar uchun qisqa muddatli va cheklangan noqulayliklar tug'dirishi mumkin. NEGUning ilgari bajarilgan loyihalardagi faoliyati va ESDD natijalariga ko'ra, NEGU hozirgi Sarimay podstansiyasini kengaytirish ishlari, taklif etilayotgan Yangi Komponent va yuqorida tilga olingan uzatish liniyalari bo'yicha atrof-muhit va ijtimoiy muvofiqlikni boshqarish, xatarlar va imkoniyatlarni nazorat qilishda cheklangan salohiyatga ega ekani aniqlangan.

Shu sababli, YTTB tomonidan Tuzatuv harakatlar rejasi (CAP) ishlab chiqilgan bo'lib, u kompaniya bilan kelishiladi va rasmiy ravishda hujjatlashtiriladi. CAPni ishlab chiqish va qabul qilish – kredit mablag'ining birinchi ajratilishi uchun zaruriy shart (CP) hisoblanadi. Asosiy choralar quyidagilarni o'z ichiga oladi: Bank tomonidan moliyalashtirilayotgan ESAP (ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi) talablarini nazorat qiladigan E&S (atrof-muhit va ijtimoiy masalalar bo'yicha) mutaxassisi rahbarligida markazlashgan loyihani boshqarish birligini (PIU) tashkil etish, xavfni yumshatish choralarini shartnoma hujjatlariga kiritish, shuningdek, asosiy qurilish ishlariga pudratchilarni va yetkazib beruvchilarni tanlashda shaffof baholash tizimini qo'llash.

Loyiha joyi hech qanday biologik xilma-xillik yoki madaniy meros obyektlari joylashgan hududlarga yaqin emas va ularni kesib o'tmaydi. Lekin Markaziy Osiyo toshbaqasi (CAT) va qum ekotizimi hayvonot guruhiga (SEFG) ta'sir ehtimolini hisobga olgan holda, CAP doirasida E&S bo'yicha texnik ko'mak (TC) maslahatchilari NEGU bilan birgalikda Biologik xilma-xillik bo'yicha harakatlar rejasini va boshqaruv hamda monitoring rejalarini ishlab chiqish va yangilash orqali salohiyatni oshirish ustida ishlaydi. Bu jarayonga ekolog yo'llanib, u ushbu hayvonot turlariga ta'sirni oldini olish faoliyatini nazorat qiladi.

Korporativ audit NEGUning milliy standartlarga muvofiqligini ko'rsatgan bo'lsa-da, ushbu standartlarni qo'llab-quvvatlovchi protseduralarni tarqatish va joriy etishni kuchaytirish zarur. Xalqaro standartlarga mos tarzda inson resurslarini boshqarish va pudratchilarni boshqarish tizimlarini yangilash ham kutilmoqda.

Kompaniya ishchilar va mahalliy aholini qamrab oluvchi Mehnat salomatligi va xavfsizligi (H&S) siyosati hamda ish joyi va jamoa salomatligi va xavfsizligi rejasini (OCHSP) ishlab chiqishi lozim. Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik bo'yicha choralar ham belgilanishi kerak. NEGU tomonidan pudratchi va subpudratchilar faoliyatini boshqaruv rejalariga va korporativ standartlarga nisbatan muntazam audit qilish tizimi ishlab chiqiladi, boshqaruv tizimiga kiritiladi va loyiha davomida qo'llaniladi. Loyihada zarur bo'ladigan ishchi turar joylari Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC) - YTTBning 2009-yildagi ish joyi bo'yicha qo'llanmasiga to'liq muvofiq bo'ladi. CAP doirasida E&S TC maslahatchilari NEGUning mavjud protseduralarini xalqaro ilg'or tajriba va Bankning Ishbilarmonlik Talablariga (PRs) muvofiqlashtirishda ko'mak beradi.

Manfaatdor tomonlar bilan ishlash rejasi (SEP) va Texnik bo'lmagan xulosa (NTS) ham yangilangan bo'lib, ular mahalliy til va ingliz tilida qayta e'lon qilinadi. Ushbu hujjatlar Bank tomonidan moliyalashtirilayotgan Sarimay–Jankeldi uzatish liniyasi bilan bog'liq bo'lgan komponentlarni ham qamrab oladi. Shuningdek, ESAP yakuniy ko'rinishda ishlab chiqiladi va kompaniya bilan kelishiladi, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: markazlashgan PIU tarkibida alohida E&S mutaxassis tayinlash, kadastr organlarida yer ijarasi holati bo'yicha ro'yxatdan o'tganligini tasdiqlash, batafsil E&S boshqaruv va biologik xilma-xillik rejalarini ishlab chiqish va pudratchilar monitoringi tartiblarini belgilash.

ESAPni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun texnik ko'mak mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan maslahatchi NEGUGa taqdim etiladi, bu loyiha YTTBning talablariga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Loyiha bo'yicha ESAP va CAP hujjatlari hamda NEGUning E&S faoliyati Bank tomonidan yollangan mustaqil maslahatchilar tomonidan har yarim yil monitoring qiladi.

Texnik ko'mak

Texnik ko'mak mablaglari loyihaga tayyorgarlik ishlari, va uni amalga oshirishga, shuningdek, tartib-qoidalarini ishlab chiqishga yordam tariqasida so'ralishi mumkin.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Shukhrat Badalov

piu.sarimay.djankeldy@gmail.com

+998 71 236-68-08

uzbekistonmet.uz

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Osiyo ko'chasi, 42-uy. Pochta indeksi: 100084.

elektron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.

